

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati
Yagona aksiyadorining 4 - sonli qarori

2025-yil 14 - aprel

Toshkent shahri

“O‘zenergosotish” AJ tomonidan chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi oddiy aksiyalar 176 592 donani tashkil etadi.

“O‘zenergosotish” AJning barsha ovoz beruvchi aksiyalari O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo'lib, ushbu vazirlik Jamiyatning Yagona aksiyadori hisoblanadi.

Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasiga asosan quyidagi masala yuzasidan qabul qilindi:

1. “O‘zenergosotish” AJning 2024-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy hisobotlarini xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazish yuzasidan auditorlik tashkilotini belgilash va ushbu tashkilotning xizmatiga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdorini tasdiqlash.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 15-yanvardagi 07/29-2-790-sonli ko‘rsatmasi ijrosini ta‘minlash.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan:

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 102-moddasiga asosan, Jamiyat yillik moliyaviy hisobotini xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazgandan keyin, aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi sanasidan kamida ikki hafta oldin e‘lon qilishi shart.

Mazkur Qonunning 59-moddasi va “O‘zenergosotish” AJ Ustavining 7.3-bandiga binoan, majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish yoki bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish vakolati aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga (Yagona aksiyadorga) berilgan.

O‘z navbatida, davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablaridan kelib chiqib 2024-yil yakuni bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni xalqaro audit standartlariga muvofiqligi yuzasidan audit o‘tkazish uchun 2025-yilning 12-martidagi E-Xarid elektronsavdo tizimining elektron do‘kon platformasi orqali o‘tkazilgan elektron xaridlar (251210083605256-lot) natijasiga ko‘ra “PERFECT AUDIT” MChJ auditorlik tashkiloti tanlab olingan. Mazkur elektron xaridlar natijasiga ko‘ra 2024-yilni yakuni bo‘yicha Jamiyatning moliyaviy hisobotlarini xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazish uchun 11777,0 ming so‘m miqdorida haq to‘lanishi ko‘zda tutilmoqda.

Shuningdek, “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashining 2025-yil 14-martdagi 1-sonli majlisida 2024-yil yakuni bo‘yicha Jamiyatning moliyaviy hisobotlarini xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazish uchun tanlab olingan “PERFECT AUDIT” MChJ auditorlik tashkilotini tasdiqlash, unga to‘lanadigan haq miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzish masalasini Jamiyatning Yagona aksiyadoriga kiritish yuzasidan qaror qabul qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib hamda “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 59-moddasiga muvofiq Jamiyatning Yagona aksiyadori **qaror qiladi**:

1. “O‘zenergosotish” AJning 2024-yil yakuni bo‘yicha moliyaviy hisobotlarini xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazish uchun “PERFECT AUDIT” MChJ auditorlik tashkiloti tasdiqlansin va unga to‘lanadigan eng yuqori haq miqdori 11777,0 ming so‘m etib belgilansin.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 15-yanvardagi 07/29-2-790-sonli xati bilan Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 464-sonli qaroriga binoan davlat ishtirokidagi korxonalarining Kuzatuv kengashi a‘zolarining javobgarligini sug‘urtalashga qo‘yiladigan asosiy talablar ishlab chiqilgani ma‘lum qilingan va mazkur talablar asosida Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zolarining javobgarligini sug‘urtalanishini ta‘minlash ko‘rsatmasi berilgan.

Mazkur xat va davlat ishtirokidagi korxonalarining Kuzatuv kengashi a‘zolarining javobgarligini sug‘urtalashga qo‘yiladigan asosiy talablardan kelib chiqib, “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashi a‘zolarining javobgarligini sug‘urtalash tartibi to‘g‘risida”gi nizam loyihasi ishlab chiqildi.

Shuningdek, “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashining 2025-yil 14-martdagi 1-sonli majlisida “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashi a‘zolarining javobgarligini sug‘urtalash tartibi to‘g‘risida”gi nizam loyihasini tasdiqlash uchun Jamiyatning Yagona aksiyadoriga kiritish yuzasidan qaror qabul qilingan.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 464-sonli qarori va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 15-yanvardagi 07/29-2-790-sonli ko‘rsatmasi ijrosini ta‘minlash maqsadida Jamiyatning Yagona aksiyadori **qaror qiladi**:

1. “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashi a‘zolarining javobgarligini sug‘urtalash tartibi to‘g‘risida”gi nizam mazkur qarorning ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

2. Jamiyatning Ijro organi (Obidjonov) tanlov asosida tegishli sug‘urta kompaniyasi bilan shartnoma tuzgan holda Kuzatuv kengashi a‘zolarining javobgarligini sug‘urtalanishini ta‘minlasin.

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosari


X. Mustafayev